

BANKLAR SEKTORLARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403362>

M.S.Rustamov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).*

M.O.Egamberganov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti moliya fakulteti
talabasi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada banklarda axborot xavfsizligini ta'minlash tizimi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, bank axborot xavfsizligini ta'minlash usullari mavjud holatlar tahlil etilgan.*

Tayanch so'zlar: *naqd pul, elektron pul, moliyaviy sektor, kompyuter texnologiyalari, axborot xavfsizlik, virtual, xususiy tarmoqlar, plastik kartalar, elektron kalit.*

Insoniyat boshidan kechirgan axborot inqiloblarining eng so'ngisi bo'lmish internet va global telekommunikatsiyalar tizimi shiddat bilan rivojlanmoqda. Biroq axborotlashtirish va kompyuterlashtirish rivijlangani sayin mazkur sohadagi jinoyatchilik ham ortib, xalqaro tus olmoqda. Ayni chog'da, dunyo bank-moliya tizimining eng zamonaviy axborot texnologiyalari asosida faoliyat yuritishi bir qancha salbiy oqibatlariga ham olib keldi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bank tizimiga zamonaviy servis echimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Markaziy bankning asosiy maqsadlaridan biri Respublika bank tizimini rivojlantirish va mustahkamlash, shuningdek to'lov tizimini beto'xtov va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi tashkilotlarida

axborot xavfsizligini etarli va lozim darajada ta'minlash hisoblanadi, ya'ni aksariyat hollarda avtomatlashtirilgan bank tizimining (ABT), bank texnologik jarayonlarining (to'lov, ma'lumotlari va boshqalar) axborot xavfsizligi darajasini aniqlashdan iboratdir.

Bank tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, alohida tashkilotlarning ish faoliyatidagi negativ holatlar yuzaga kelishi oqibatlari to'lov tizimida tizim inqirozini tez rivojlanishiga olib keladi, mijozlar va mulkdorlar daromadlariga ta'sir qiladi. Axborot xavfsizligida insident holatlarining yuzaga kelishi bank tizimi tashkilotlariga sezilarli darajada ziyon etish imkoniyatlarini oshiradi. Shuning uchun bank tizimi tashkilotlarining axborotlar aktivlariga tahdid, ya'ni axborot xavfsizligiga xavf tashkilotga ko'rsatiladigan real xavfni ifoda qiladi.[1]

Bunday tahdidlarga qarshi turish va axborot xavfsizligida noxush holatlarni bartaraf etishning samarali chora-tadbirlarini ta'minlash uchun bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligi etarli darajada ta'minlanishi, shuningdek bu holatni uzoq vaqt mobaynida saqlab turilishi lozimdir. Ushbu sabablarga ko'ra bank tizimi tashkilotlarida axborot xavfsizligi masalalari ularning faoliyatida eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Bankning obro'si va raqobatbardoshligi uning axborot xavfsizligiga bog'liq. Kredit tashkilotining axborot xavfsizligining yuqori darajasi quyidagi xatarlarni minimallashtirishga imkon beradi:

- rasmiy/tijorat/bank sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlarning sizib chiqish riski;
- qimmatli ma'lumotlarni yo'q qilish va yo'qotish riski;
- bank faoliyatida, shu jumladan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda to'liq bo'lmagan yoki buzilgan ma'lumotlardan foydalanish riski;
- bank obro'siga tahdid soladigan tashqi muhitda ma'lumot tarqatish riski.

Bank axborot tizimlarining xususiyatlari shundan iboratki, ular:

- jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy holati va faoliyati to'g'risidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash

- moliyaviy oqibatlarga olib keladigan operatsiyalarni amalga oshirish uchun vositalarga ega bo'lish

- ularni to'liq yopish mumkin emas, chunki ular xizmat ko'rsatish darajasiga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob berishi kerak (online-banking tizimi, umumiy aloqa kanallariga ulangan bankomatlar tarmog'i va boshqalar).

Bank axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida bank mijozlari, ularning hisobvaraqlari holati va turli moliyaviy operatsiyalar to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlar mavjud.

Ushbu ma'lumotlarning axborot xavfsizligini saqlash zarurati aniq, ammo ma'lumotni tez va o'z vaqtida almashmasdan hamda qayta ishlashsiz bank tizimi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shu sababli, bank ma'lumotlarini himoya qilish va mijozlar bazasining maxfiyligini ta'minlaydigan bir butunlik kerak.

Ushbu ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

- maxfiy axborotni baholash va ishlab chiqish;
- muhofaza qilishni amalga oshirish uchun ob'yektni jihozlash;
- qabul qilingan chora-tadbirlar samaradorligini nazorat qilish.


Qabul qilingan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish uchun bankda qo'llaniladiganlarning samaradorligini qayd etadigan yozuvni yuritish kerak.

Buzg'unchilik va ma'lumotlarning tarqalishi uchun ko'plab imkoniyatlarga qaramay, bank ma'lumotlarining xavfsizligini va ularning maxfiyligini ta'minlash juda mumkin.

Zamonaviy usullar kriptografiya tizimini takomillashtirish, shuningdek, elektron raqamli imzo (ERI) kabi chorani amalga oshirish imkonini berdi. U qo'lda yozilgan imzoning analogi bo'lib xizmat qiladi va imzo egasida saqlanadigan elektron kalit bilan bevosita bog'langan. Kalit ikki qismdan iborat: ochiq va yopiq hamda maxsus kod bilan himoyalangan.

Banklarda axborot xavfsizligi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda mukammal strategiyani tanlash talab etiladi. Agar ushbu faoliyatni tashkil etishda qandaydir vositalar etarli bo‘llmasa, unda belgilangan natijaga erisha olmaydi. Bank sohasida axborot xavfsizligi ta‘minlashni ikki xil usulda, axborot xavfsizligi tizimini joriy etish yoki axborot xavfsizligi ta‘minlash agentliklarini jalb etish orqali tashkil etish mumkin.


So‘nggi yillarda bank sohasida raqamlashtirish jarayonini kirib kelishi natijasida bank axborot xavfsizligini ta‘minlash tizimi ham o‘zgarib bormoqda. Bunda asosiy e‘tibor raqamli mahsulotlarga bo‘lgan talabni zudlik bilan o‘rganish va uni (biometrik texnologiyalarni ovozni aniqlash, barmoq izini aniqlash, yuzni tanish, ko‘zni tanib olish va b.) bank mijozlariga taqdim etish bo‘yicha turli yondashuvdagi strategiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Raqamli bank strategiyasini tuzishning asosiy masalasi bu banklarning yangi bank xizmatlarini masofaviy, qulay va kam harajatligiga e‘tibor berishi zarurligini hamda axborot xavfsizligini ta‘minlash tizimiga alohida e‘tibor berishni belgilab beradi.



1-rasm. Bank axborot xavfsizligini ta‘minlash tizimining tarkibiy qismlari [2]

Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ayniqsa oxirgi ikki yilda keskin ortganini ko‘rish mumkin (2.4-rasm). Buni ikkita holat bilan, birinchidan, tijorat banklarida raqamlashtirish orqali bank mahsulotlari hajmining ortishi, ikkinchidan, pandemiya sharoitida raqamli bank mahsulotlariga bo‘lgan

talabning ortgani bilan izohlash mumkin. Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olgan holda bugungi kunda banklar xafvsizligini ta'minlash tizimini to'g'ri yo'ga qo'yishni talab etadi.



2-rasm. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni [3]

Bugungi kunda mamlakatimizdagi tijorat banklaridagi raqamli bank xizmatlari hali rivojlanib borayotganligini hisobga olsak, banklar xafvsizligini ta'minlash tizimini etarlicha darajada ta'minlangan emas. Chunki bank mahsulotlaridan foydalanuvchilar soni yildan-yilga ortib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, banklar axborot xafvsizligini ta'minlash tizimini yanada oshirish zarur bo'ladi. Buning uchun respublikamiz banklarida banklar axborot xafvsizligini ta'minlash strategiyasini mukammal ishlab chiqish va xorijiy banklar amaliyotida keng foydalanib kelayotgan axborot xafvsizligini ta'minlash strategiyalari tajribasidan foydalanish bo'yicha aniq echimlarga ega bo'lish muhim hisoblanadi. Demak, har qanday axborot xafvsizligini ta'minlash strategiyasini tuzish jarayonida uning kelajakdagi qiymatligiga, ya'ni axborot xafvsizligi darajasining kelib chiqish manbasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shunday qilib, bank axborot xafvsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlariga qaratilgan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, raqamli banking moliyaviy xizmatlarni mobil va onlayn-

platformalar orqali amalga oshirishda vaqt va xarajatlarni tejash, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, xizmat ko'rsatish tezligi va sifatini oshirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev Yo., Karaliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. "Bank ishi" o'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", 2010 y. 207-331 b.
2. O.I.Lavrushina. "Bankovskoye delo" Uchebnik. Pod. Rek. -2-e izd, pererabot. I dop. - M.: Finansi i statistika, 2007. - 576 s.
3. Abdullayeva Sh.Z. Karimov F.Sh., Navro'zova K.N., Ortiqov U.D. "Bank resurslari va ularni shakllantirish asoslari". T.: "TMI" 2004 y. -263 b.
4. Sh.Z.Abdullayeva Bank ishi. Darslik. T: «IQTISOD-MOLIYA», 2017 y. 535-540 b.
5. <http://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti.
6. www.google.uz Xalqaro ma'lumotlar qidiruv sayti.
7. <https://cbu.uz/uz/documents/3332/37539/>
8. www.banking.com